



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмурадовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLIH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLIH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIV TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIV SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	
DAVLAT BUDJETIDA SOLIQ TUSHUMLARI O'ZGARISHINING EKONOMETRIK TADQIQOTI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	288
Suvanova Muxlisa Umar qizi	
ENERGETIKA RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	292
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
ENERGETIKA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUD IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	297
Sadullayev Axmadjon Ikrom o'g'li	



TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRINI BOJXONA NAZORATI MAQSADLARIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	303
Kilichov Nazar Bafojevich	
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	310
Botirov Lazizbek Botirovich	
KATTA MA'LUMOTLAR ASOSIDA TURISTIK XIZMATLARGA BO'LGAN TALABNI PROGNOZLASHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	314
Temirov Elyor Iskandarovich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI SAMARADORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI.....	322
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA AJRATILAYOTGAN BANK KREDITLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	328
Alijonov Ilyosbek Alijonovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA AJRATILAYOTGAN BANK KREDITLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Alijonov Ilyosbek Alijonovich
Ipoteka Bank Namangan filiali,
Chakana xizmatlar bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes **subyektlariga** ajratilayotgan bank kreditlarining iqtisodiy samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari, mezonlari va amaliy mexanizmlari tadqiq etilgan. Kreditlash natijadorligi qarz oluvchi **subyektning** qo'shimcha daromadi, **operatsion** pul oqimi, ishlab chiqarish hajmi, rentabelligi, mehnat unumdorligi, bandlik ko'rsatkichlari va moliyaviy barqarorligida yuzaga kelgan sifat hamda miqdor o'zgarishlari bilan o'zaro bog'liq holda baholanishi zarurligi ko'rsatilgan. Kreditdan oldingi bazaviy holatni aniqlash, kreditdan keyingi qo'shimcha natijani o'lchash, riskka moslashtirilgan daromadni hisoblash, raqamli monitoring va pul oqimiga asoslangan kreditlashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, bank krediti, iqtisodiy samaradorlik, kreditlash mexanizmi, kreditga layoqatlilik, axborot asimmetriyasi, kredit riski, **operatsion** pul oqimi, rentabellik, kredit monitoringi, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations, evaluation criteria, and practical mechanisms for assessing the economic efficiency of bank loans provided to small business entities. It substantiates the need to evaluate lending performance comprehensively by considering the qualitative and quantitative changes in borrowers' additional income, operating cash flow, production volume, profitability, labour productivity, employment indicators, and financial sustainability. The study develops scholarly proposals for determining the borrower's baseline financial and economic position prior to receiving a loan, measuring the additional outcomes generated after financing, calculating risk-adjusted returns, improving digital monitoring, and advancing cash-flow-based lending practices.

Keywords: small business, bank loan, economic efficiency, lending mechanism, creditworthiness, information asymmetry, credit risk, operating cash flow, profitability, credit monitoring, financial sustainability.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы, критерии и практические механизмы оценки экономической эффективности банковских кредитов, предоставляемых субъектам малого бизнеса. Обоснована необходимость комплексной оценки результативности кредитования во взаимосвязи с качественными и количественными изменениями, происходящими в дополнительных доходах заёмщика, операционном денежном потоке, объёме производства, рентабельности, производительности труда, показателях занятости и финансовой устойчивости. Разработаны научные предложения по определению исходного финансово-экономического состояния субъекта до получения кредита, измерению дополнительного результата после кредитования, расчёту доходности с учётом риска, совершенствованию цифрового мониторинга и развитию кредитования, основанного на анализе денежных потоков.

Ключевые слова: малый бизнес, банковский кредит, экономическая эффективность, механизм кредитования, кредитоспособность, информационная асимметрия, кредитный риск, операционный денежный поток, рентабельность, кредитный мониторинг, финансовая устойчивость.

KIRISH

Kichik biznes **subyektlari** milliy iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish hamda aholi daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin egallaydi. Ularning tashkiliy jihatdan ixchamligi, bozor talablaridagi o'zgarishlarga nisbatan tez moslashuvchanligi va nisbatan kam kapital asosida yangi faoliyat yo'nalishlarini o'zlashtira olishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq kichik biznes **subyektlarining** aksariyati faoliyatni boshlash, aylanma mablag'larni to'ldirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bozorlarga chiqish uchun yetarli ichki moliyaviy resurslarga ega emas. Shu



sababli tijorat banklari kreditlari mazkur **subyektlarni** moliyalashtirishning asosiy tashqi manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Kreditlash amaliyotida natijadorlikni ko'pincha ajratilgan kreditlar miqdori, kredit shartnomalari soni, kredit portfeli o'sish sur'ati yoki moliyalashtirilgan loyihalar qiymati orqali ifodalash kuzatiladi. Bunday ko'rsatkichlar kreditlash ko'lamini tavsiflashda, mablag'ning iqtisodiy qaytimi, qarz oluvchi faoliyatida yuzaga kelgan qo'shimcha natija va bank qabul qilgan riskning oqilona darajasini to'liq ochib bermaydi. Kreditning iqtisodiy samaradorligi uning ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, sof foyda va **operatsion** pul oqimini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda kredit majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishiga ko'rsatgan ta'siri orqali aniqlanishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi kichik biznes **subyektlariga** ajratilayotgan bank kreditlarining iqtisodiy samaradorligini baholashga oid nazariy qarashlarni tizimlashtirish, xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarini qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston bank amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan takomillashgan baholash mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi kredit samaradorligini faqat kredit resursining daromadliligi yoki qaytaruvchanligi bilan emas, balki kreditdan keyin yuzaga kelgan qo'shimcha iqtisodiy natija, bankning riskka moslashtirilgan daromadi, ijtimoiy-byudjet samarasi va kredit ta'sirining qo'shimchalik darajasini birlashtiruvchi kompleks yondashuv asosida baholash taklif etilgani bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni bank orqali moliyalashtirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda, avvalo, kredit bozorida axborot asimmetriyasi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. J. Stiglits va E. Vaysning fundamental tadqiqotida bank va qarz oluvchi o'rtasida axborotning teng taqsimlanmagani kredit bozorida narx mexanizmining to'liq ishlamasligiga sabab bo'lishi asoslangan. Mualliflarning fikricha, foiz stavkasining oshirilishi bank daromadini avtomatik ravishda ko'paytirmaydi. Yuqori foiz stavkalari nisbatan past riskli loyihalarni kredit bozorida chiqarishi va yuqori riskni qabul qilishga tayyor qarz oluvchilar ulushini oshirishi mumkin. Natijada bank kreditga talab yuqori bo'lgan sharoitda ham foiz stavkasini oshirish o'rniga kredit miqdorini cheklashi mumkin [1]. Ushbu yondashuv kredit rasionirovkasi nazariyasining asosini tashkil etib, kichik biznes subyektlarining moliyaviy ko'rsatkichlari yetarli darajada shaffof bo'lmagan sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi.

Stiglits va Vays nazariyasining kichik biznes kreditlari samaradorligini baholashdagi ahamiyati shundaki, u bank qarori faqat foiz stavkasi va garov miqdoriga asoslanmasligi lozimligini ko'rsatadi. Kreditning narxi yuqori bo'lishi bank riskini kamaytirish o'rniga qarz oluvchini yuqori daromadli, biroq yuqori riskli faoliyatga yo'naltirishi mumkin. Shu sababli kreditlash samaradorligi kredit narxi bilan bir qatorda, loyiha sifati, tadbirkorning boshqaruv qobiliyati, pul oqimi va axborot ishonchligiga ham bog'liq.

A. Berger va G. Udell kichik va o'rta biznesni kreditlashni faqat bank bilan qarz oluvchi o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarga asoslangan model orqali izohlashni yetarli deb hisoblamaydi. Ular moliyaviy hisobotlarga asoslangan kreditlash, aktivlarga asoslangan kreditlash, faktoring, lizing, kredit skoringi va munosabatlarga asoslangan kreditlash kabi turli texnologiyalarni yagona konseptual tizimda ko'rib chiqadi [2]. Mualliflar kreditlash texnologiyasini tanlash qarz oluvchining axborot shaffofligi, aktivlari tarkibi, korxona hajmi va institutsional muhit xususiyatlariga muvofiq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Berger va Udell yondashuvidan kelib chiqib aytish mumkinki, kichik biznes krediti samaradorligi nafaqat qarz oluvchining moliyaviy holatiga, balki bank qo'llayotgan kreditlash texnologiyasining mazkur subyekt xususiyatlariga qanchalik mos kelishiga ham bog'liq. Masalan, moliyaviy hisoboti yetarli darajada rivojlanmagan, ammo barqaror pul aylanmasiga ega bo'lgan korxonani faqat buxgalteriya hisoboti asosida baholash uning real kredit qobiliyatini pasaytirib ko'rsatishi mumkin. Bunday subyekt uchun bank hisobvarag'i aylanmasi, tovar harakati va shartnomaviy tushumlarga asoslangan baholash nisbatan samarali bo'ladi.

T. Bek, A. Demirguch-Kunt va V. Maksimovich tomonidan 48 mamlakat korxonalari ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan tadqiqotda kichik firmalarning tashqi moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyati yirik firmalarga nisbatan cheklangani aniqlangan. Olimlar korxona hajmi, moliya tizimining rivojlanganlik darajasi va mulk huquqlarining himoya qilinishi moliyalashtirish manbalari tarkibiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [3]. Tadqiqot natijalari kichik subyektlar, ayniqsa, institutsional muhit nisbatan zaif bo'lgan iqtisodiyotlarda bank kreditlaridan kamroq foydalanishini ko'rsatadi.

Mazkur xulosalar kredit samaradorligini baholashda faqat kredit olgan subyektlarni tahlil qilish yetarli emasligini ko'rsatadi. Kreditlash tizimining iqtisodiy samaradorligi moliyaviy jihatdan istiqbolli, ammo axborot yoki garov cheklavlari sabab kredit ololmagan subyektlar soni bilan ham bog'liq. Agar bank tizimi yuqori samarali loyihalarni moliyalashtirishdan chetda qoldirib, faqat yetarli garovga ega subyektlarga kredit ajratsa, kredit portfelining rasmiy sifati yuqori bo'lishi mumkin, biroq resurslarni taqsimlashning umumiy iqtisodiy



samaradorligi past bo'lib qoladi.

T. Bek, A. Demirguyuch-Kunt va M.S. Martinez Periyani turli mamlakatlardagi banklar amaliyotiga oid tadqiqotlarida kichik va o'rta biznes segmenti banklar uchun faqat ijtimoiy vazifa emas, balki iqtisodiy jihatdan daromadli bozor bo'lishi mumkinligi asoslangan. Biroq ushbu segmentni kreditlashda axborot tanqisligi, huquqiy muhit, garovdan undirish jarayoni, makroiqtisodiy beqarorlik va kreditni ma'muriy boshqarish xarajatlari muhim to'siqlar sifatida namoyon bo'ladi [4]. Demak, kichik biznes kreditining samaradorligi qarz oluvchi va bank o'rtasidagi xususiy munosabatlar bilangina emas, balki kredit axboroti tizimi, huquqiy kafolatlar va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi.

A. de la Torre, M.S. Martinez Periya va S. Shmukler munosabatlarga asoslangan kreditlash kichik biznes uchun yagona samarali model emasligini ko'rsatgan. Ularning tadqiqotlarida yirik va xorijiy banklar ham standartlashtirilgan mahsulotlar, kredit skoringi, axborot texnologiyalari va portfel diversifikatsiyasi vositasida kichik biznes segmentida samarali faoliyat yuritishi mumkinligi asoslangan [5]. Ushbu yondashuv bank hajmidan ko'ra ma'lumotlarni qayta ishlash sifati, kredit jarayonining texnologiyalashganlik darajasi va risklarni boshqarish mexanizmi muhimroq ekanini anglatadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan bank krediti, kreditga layoqatlilik va kichik biznesni moliyalashtirish masalalari turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Sh.Z. Abdullayeva bank kreditini qaytarish, muddatlilik, to'lovlik, ta'minlanganlik va maqsadlilik tamoyillariga asoslangan iqtisodiy munosabat sifatida talqin etadi. Olimaning yondashuvida qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash, uning pul oqimi, moliyaviy natijalari va kreditni qaytarish manbalarini aniqlash bank kreditlash jarayonining markaziy qismi sifatida qaraladi [7]. Ushbu yondashuv kredit samaradorligini kredit ajratilishidan oldingi tahlil sifati bilan bog'lash imkonini beradi. Sh.Z. Abdullayevaning bank ishiga oid darsligida kichik biznesni kreditlash, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash, kredit ta'minoti va bank risklarini boshqarish masalalari yaxlit tarzda yoritilgan.

D. Tojiboyevaning O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga bag'ishlangan tadqiqotida mazkur subyektlarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, bank kreditlariga kirish imkoniyatlari va moliyaviy bo'shliqlar tahlil qilingan. Muallif kichik biznesni moliyalashtirishda bank kreditlarining ustuvorligini ta'kidlagan holda, lizing, venchur kapitali, faktoring va boshqa muqobil vositalar yetarlicha rivojlanmaganini qayd etadi [6]. Tadqiqot O'zbekiston sharoitida kichik biznesning tashqi moliyaviy manbalarga yuqori darajada bog'liqligi va kredit mahsulotlarini subyektlarning tarmoq hamda pul oqimi xususiyatlariga muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda kichik biznesni imtiyozli kreditlash, bank kreditlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri, garov ta'minoti va foiz stavkalari masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ayrim tadqiqotlarda imtiyozli kreditlarni kengaytirish kichik biznesni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida baholanadi [8]. Biroq imtiyozli foiz stavkasi kreditning iqtisodiy samaradorligini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Agar kredit mablag'i bozor talabi chuqur o'rganilmagan, operatsion pul oqimi yetarli bo'lmagan yoki boshqaruv salohiyati past loyihaga yo'naltirilsa, imtiyozli kredit qaytaruvchanligini faqat vaqtincha yengillashtirishi mumkin. O'zbekistonda imtiyozli kreditlashga oid zamonaviy tadqiqotlar ushbu mexanizmning qo'llab-quvvatlovchi ahamiyatini ko'rsatsa-da, uning natijadorligini ish o'rinlari, qo'shimcha mahsulot va soliq tushumlari bilan o'lchash zarurligini ham yuzaga chiqaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kredit munosabatlarning iqtisodiy mazmuni, kichik biznesni moliyalashtirish nazariyasi, axborot asimmetriyasi konsepsiyasi, kredit rasionirovkasi nazariyasi va bank risklarini boshqarishga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish, dinamik taqqoslash, koeffitsiyentlar tahlili hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash usullaridan foydalanildi.

Kredit samaradorligini baholashda «resurs–natija–risk» metodologik bog'liqligi asos qilib olindi. Unga muvofiq, kreditning iqtisodiy natijasi ajratilgan resurs miqdori bilan emas, ushbu resurs hisobiga yaratilgan qo'shimcha qiymat va uning bank qabul qilgan riskka nisbati bilan belgilanadi. Bunday yondashuv kreditlash hajmining nominal o'sishini iqtisodiy natijadorlikdan ajratish imkonini beradi.

Tadqiqotning axborot bazasini bank kreditlash nazariyasiga oid fundamental ilmiy ishlar, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning bank ishi va kichik biznesni moliyalashtirishga doir tadqiqotlari, xalqaro moliya institutlarining tahliliy materiallari hamda bank amaliyotida qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlar tashkil etadi. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki institutining O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga oid tadqiqotida bank kreditlarining ustuvor ahamiyati bilan birga, moliyaviy vositalarning yetarlicha diversifikatsiya qilinmagani va kichik biznesning tashqi moliyalashtirishga kirish imkoniyatlarida mavjud cheklavlar tahlil qilingan [6].

TAHLIL VA NATIJALAR



Iqtisodiy samaradorlik umumiy ma'noda sarflangan resurslar bilan erishilgan natijalar o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Bank kreditiga nisbatan ushbu tushuncha kredit mablag'idan foydalanish natijasida yaratilgan qo'shimcha iqtisodiy qiymatning kreditni jalb qilish va unga xizmat ko'rsatish xarajatlariga nisbati sifatida talqin qilinishi mumkin. Biroq kreditning samaradorligini faqat qo'shimcha foydaning kredit miqdoriga nisbati orqali baholash uning barcha natijalarini qamrab olmaydi.

Kredit mablag'i ishlab chiqarish vositalarini xarid qilishga yo'naltirilganda iqtisodiy natija darhol shakllanmasligi mumkin. Yangi uskunani o'rnatish, xodimlarni tayyorlash, texnologik jarayonni moslashtirish va bozorga chiqish uchun muayyan vaqt talab etiladi. Shu sababli qisqa muddatli tahlilda kredit natijasida korxona xarajatlari oshgan va foydasi pasaygan ko'rinishi mumkin, holbuki keyingi davrlarda ishlab chiqarish hajmi hamda pul oqimi sezilarli darajada ko'payishi ehtimol. Demak, kredit samaradorligini baholash davri moliyalashtirilgan loyihaning investitsiya va operatsion sikliga muvofiq belgilanishi kerak.

Kredit mablag'idan foydalanishning umumiy iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin:

$$[KS=\frac{\Delta SF+\Delta AP-\Delta OX}{KX}\times 100,]$$

bu yerda:

KS – kreditning iqtisodiy samaradorlik darajasi;

ΔSF – kreditdan foydalanish natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha sof foyda;

ΔAP – qo'shimcha amortizatsiya va sof operatsion pul oqimi;

ΔOX – kredit loyihasi bilan bog'liq qo'shimcha operatsion xarajatlar;

KX – foiz, komissiya, sug'urta, garovni baholash va boshqa kredit xarajatlari.

Ushbu ko'rsatkich kredit hisobiga yaratilgan sof iqtisodiy natijaning uni jalb qilish xarajatlariga nisbatini ko'rsatadi. Biroq mazkur formuladan foydalanishda qo'shimcha foyda va pul oqimi aynan kredit ta'sirida yuzaga kelganini asoslash talab etiladi. Agar mahsulot narxining umumiy o'sishi yoki bozor kon'yunkturasi yaxshilanishi natijasida korxona tushumi ko'paygan bo'lsa, ushbu o'sishni to'liq kredit samarasi sifatida qabul qilish noto'g'ri bo'ladi.

Kredit samaradorligini baholashda operatsion pul oqimi sof foydaga nisbatan ishonchliroq ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Chunki sof foyda buxgalteriya hisobidagi amortizatsiya, zaxiralar va hisoblash usulidagi daromadlar ta'sirida shakllanadi. Kredit majburiyatlari esa real pul mablag'lari hisobiga bajariladi. Shu sababli bank qarz oluvchining foydasi bilan bir qatorda, uning asosiy faoliyatdan kelib tushayotgan pul oqimi barqarorligini ham baholashi zarur.

Qarzga xizmat ko'rsatish qobiliyati quyidagi koeffitsiyent asosida aniqlanishi mumkin:

$$[QXK=\frac{\text{Sof\ operatsion\ pul\ oqimi}}{\text{Asosiy\ qarz\ va\ foiz\ to'lovlari}}]$$

koeffitsiyentning birdan yuqori bo'lishi korxonaning operatsion pul oqimi joriy kredit to'lovlarini qoplash uchun yetarli ekanini anglatadi. Biroq bank amaliyotida ushbu ko'rsatkichning minimal darajasi tarmoq xususiyati, tushumlarning mavsumiyligi, kredit muddati va korxona xarajatlari barqarorligiga qarab differensial belgilanishi lozim. Mavsumiy tushumga ega qishloq xo'jaligi subyekti bilan barqaror kunlik tushumga ega xizmat ko'rsatish korxonasi uchun bir xil me'yor qo'llash iqtisodiy jihatdan asoslanmaydi.

Bank nuqtayi nazaridan kredit samaradorligi foiz daromadining yuqoriligi bilangina belgilanmaydi. Kredit bo'yicha olingan daromaddan resurslarni jalb qilish qiymati, kreditni rasmiylashtirish va monitoring xarajatlari, ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar hamda defolt riski chegirilishi lozim. Shu asosda bank uchun kreditning riskka moslashtirilgan samaradorligi quyidagi tarzda ifodalanishi mumkin:

$$[RMS=\frac{FD+KD-RQ-OX-EY}{AJK}\times 100,]$$

bu yerda:

RMS – riskka moslashtirilgan samaradorlik;

FD – kredit bo'yicha foiz daromadi;

KD – komissiya va boshqa daromadlar;

RQ – jalb qilingan resurslar qiymati;

OX – kreditni ko'rib chiqish va monitoring qilish xarajatlari;

EY – kutilgan kredit yo'qotishlari;

AJK – ajratilgan jami kredit mablag'i.

Mazkur ko'rsatkich nominal foiz daromadi yuqori bo'lgan, ammo defolt ehtimoli va operatsion xarajatlari katta kreditning amalda samarasiz bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunda kutilgan yo'qotish qarz oluvchining



defolt ehtimoli, defolt vaqtidagi kredit qoldig'i va defolt holatidagi yo'qotish darajasi asosida hisoblanishi maqsadga muvofiq.

Kreditning ijtimoiy-iqtisodiy natijasi ham baholash tizimiga kiritilishi zarur. Ayniqsa, davlat kafolati, foiz kompensatsiyasi yoki imtiyozli resurslar hisobiga ajratilgan kreditlar bo'yicha yangi ish o'rinlari, ish haqi fondining o'sishi, qo'shimcha soliq tushumlari, eksport hajmi va mahalliyashtirish darajasi muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Bunda bir yangi ish o'rniga to'g'ri keladigan kredit miqdori, bir so'm davlat qo'llab-quvvatlashi hisobiga olingan qo'shimcha soliq tushumi va yaratilgan qo'shimcha qiymatni hisoblash mumkin.

Kreditning byudjet samaradorligi quyidagi tarzda baholanishi mumkin:

$$[BS=\frac{\Delta ST+\Delta IT-DQX}{DQX}\times 100,]$$

bu yerda:

BS – kreditning byudjet samaradorligi;

ΔST – qo'shimcha soliq tushumlari;

ΔIT – ijtimoiy to'lovlar va boshqa byudjet tushumlarining o'sishi;

DQX – davlat kafolati, foiz kompensatsiyasi va boshqa qo'llab-quvvatlash xarajatlari.

Agar byudjet samaradorligi ijobiy bo'lsa, davlat tomonidan kreditni qo'llab-quvvatlashga sarflangan mablag' qo'shimcha byudjet tushumlari bilan qoplanayotganini ko'rsatadi. Biroq qisqa muddatli davrda ayrim investitsiya loyihalarining byudjet samarasi past bo'lishi mumkin. Shu sababli hisoblash davri loyihaning iqtisodiy hayot sikli bilan muvofiqlashtirilishi zarur.

Kredit samaradorligini to'g'ri baholashda «qo'shimchalik» tamoyili alohida ahamiyatga ega. Mazkur tamoyil kredit berilmagan taqdirda ham korxona rejalashtirilgan natijaga erisha olarmidi, degan savolga javob berishni nazarda tutadi. Agar tadbirkor investitsiyani o'z mablag'i yoki boshqa manba hisobiga amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, kreditdan keyingi barcha natijani bank krediti samarasi deb hisoblash to'g'ri emas. Kredit haqiqatan ham loyihaning amalga oshishi, uning ko'lami kengayishi yoki muddati tezlashishiga sabab bo'lgan taqdirdagina qo'shimcha samara yuzaga keladi.

Kreditdan keyingi monitoring samaradorlikni ta'minlashning muhim bosqichi hisoblanadi. Monitoring faqat to'lov grafigiga rioya etilishi va garov holatini tekshirish bilan cheklanmasligi kerak. Bank qarz oluvchining tushumi, pul oqimi, debitor va kreditor qarzlari, tovar zaxiralari, tannarx, ishlab chiqarish quvvati va bozordagi o'zgarishlarni muntazam tahlil qilishi zarur. Tushumning keskin kamayishi, hisobvaraqlar aylanmasining pasayishi, soliq qarzдорligining paydo bo'lishi yoki ta'minotchilar oldidagi majburiyatlarning ortishi kredit riskining erta ogohlantiruvchi indikatorlari sifatida qabul qilinishi mumkin.

Kredit muddati va to'lov grafigining loyiha pul oqimiga muvofiqligi ham iqtisodiy samaradorlikning muhim shartidir. Qisqa muddatli kredit hisobiga uzoq muddatda qoplanadigan uskuna xarid qilinishi korxonaning dastlabki davrdagi qarz yukini keskin oshiradi. Aksincha, aylanma mablag' uchun haddan tashqari uzoq muddatli kredit ajratilishi bank resurslaridan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun kredit muddati, imtiyozli davr va to'lovlar davriyligi loyihaning pul oqimi hamda ishlab chiqarish sikli asosida belgilanishi kerak.

Kredit ajratilishidan oldin qarz oluvchining bazaviy iqtisodiy holatini aks ettiruvchi elektron kredit pasportini shakllantirish taklif etiladi. Unda korxonaning sotish tushumi, sof foydasi, operatsion pul oqimi, xodimlar soni, o'rtacha ish haqi, soliq to'lovlari, ishlab chiqarish quvvati, aktivlar tarkibi va mavjud qarz majburiyatlari qayd etilishi lozim. Kredit ajratilganidan keyin mazkur ko'rsatkichlarning dinamikasi avtomatik ravishda kuzatilsa, kreditning haqiqiy iqtisodiy natijasi aniqroq baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan bank kreditlarining iqtisodiy samaradorligini baholash bank kreditlash siyosatining sifatini aniqlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Kreditlash samaradorligini faqat kredit qo'yilmalari hajmi, shartnomalar soni yoki kredit portfelining o'sishi orqali ifodalash kredit resurslarining real iqtisodiy natijasini to'liq aks ettirmaydi. Kreditning haqiqiy samarasi qarz oluvchining qo'shimcha foydasi, **operatsion** pul oqimi, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi, moliyaviy barqarorligi va kreditni qaytarish qobiliyatida yuz bergan o'zgarishlar bilan belgilanadi.

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida kreditga layoqatlilik, kredit ta'minoti, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va imtiyozli kreditlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar milliy bank amaliyotining muhim xususiyatlarini ochib bergan bo'lsa-da, kreditdan oldingi va keyingi natijalarni qiyosiy o'lchash, kreditning qo'shimcha iqtisodiy ta'sirini ajratish va bank hamda davlat samaradorligini yagona metodikada baholash masalalari yanada chuqur tadqiq etilishi lozim.



Kreditlash amaliyotiga elektron kredit pasporti, pul oqimiga asoslangan tahlil, raqamli skoring, erta ogohlantirish indikatorlari va natijaviy monitoringning joriy qilinishi bank resurslarining samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy jihatdan istiqbolli kichik biznes **subyektlarining** moliyalashtirishga kirish imkoniyatini kengaytiradi, muammoli kreditlar xavfini kamaytiradi va kredit resurslarining milliy iqtisodiyot rivojiga qo'shayotgan hissasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. 1981. Vol. 71. No. 3. P. 393–410.
2. Berger A.N., Udell G.F. A More Complete Conceptual Framework for SME Finance // Journal of Banking and Finance. 2006. Vol. 30. No. 11. P. 2945–2966.
3. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Financing Patterns Around the World: Are Small Firms Different? // Journal of Financial Economics. 2008. Vol. 89. No. 3. P. 467–487.
4. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Martinez Peria M.S. Bank Financing for SMEs Around the World: Drivers, Obstacles, Business Models and Lending Practices. World Bank Policy Research Working Paper. Washington, 2008.
5. De la Torre A., Martinez Peria M.S., Schmukler S.L. Bank Involvement with SMEs: Beyond Relationship Lending // Journal of Banking and Finance. 2010. Vol. 34. No. 9. P. 2280–2293.
6. Tadjibaeva D. Small and Medium-Sized Enterprise Finance in Uzbekistan: Challenges and Opportunities. ADBI Working Paper No. 997. Tokyo: Asian Development Bank Institute, 2019.
7. Abdullayeva Sh.Z., Azizov U.O'. *Bank ishi: darslik*. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – 540 b.
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik **subyektlarini** imtiyozli kreditlar ajratish orqali rivojlantirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2025.
9. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Martinez Peria M.S. Bank Financing for SMEs: Evidence Across Countries and Bank Ownership Types // Journal of Financial Services Research. 2011. Vol. 39. P. 35–54.
10. World Bank. Improving Access to Finance for Small and Medium Enterprises. Washington, D.C.: World Bank.
11. Asian Development Bank. Uzbekistan: Small Business Finance Project. Manila: ADB.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Kichik tadbirkorlik subyektlarini kreditlash va bank risklarini boshqarishga oid tahliliy materiallar. – Toshkent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>